

О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA'MURIY SUDLARNING TAKOMILLASHISH HUQUQIY ASOSLARI

Abdurasulov Abdusamad Abdumajitovich

*O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi "Ma'muriy huquq" yunalishi tinglovchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida sudlarining vakolatlari qayta ko'rib chiqish yo'li bilan Ma'muriy sudlarni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining qabul qilinishi, Ma'muriy sudlarning takomillashib borishining huquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sud vakolatlari, taraflar, ma'muriy sudlar, kodeks, strategiya, ma'muriy yustisiya.

Annotation: This article deals with the establishment of Administrative Courts by reviewing the powers of the courts on the basis of the Action Strategy for the Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, the Codex of Administrative Procedure of the Republic of Uzbekistan opinion on measures to ensure the effective protection of the rights of the parties in administrative proceedings.

Keywords: jurisdiction, parties, conciliation agreements, strategy.

Аннотация: В данной статье речь идет о создании административных судов путем пересмотра полномочий судов на основе принятия Стратегии развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, Административно процессуального кодекса Республики Узбекистан, правовая основа для совершенствования административных судов. Ключевые слова: подсудность, стороны, административные суды, кодекс, стратегия, административная юстиция.

O'zbekiston erkin bozor iqtisodiyoti va kuchli ijtimoiy himoyalash tizimiga asoslangan demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan dadil bormoqda. O'zbekiston Respublika-sining Konstitutsiyasi ushbu maqsadlar yo'lida muhim huquqiy zamin, jamiyatimizda barqarorlik, shuningdek inson huquqlari va erkinliklarining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari va erkinlik-larini ta'minlashda, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkam-lashda hamda fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlashga ko'maklashishda, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, qolaversa, qonun hujjatlarini amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirish va takomillashtirishda sud hokimiyati alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish,

sudyalarning chinakam mustaqilligini va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta'minlash mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdagi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ma'muriy sudlarni tashkil etishning nazarda tutilishi ham aynan inson huquqlarini himoya qiluvchi sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudda ishlarni ko'rish va hal etishning sifatini oshirish, pirovardida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanishi bilan bog'liq konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilishini ham ta'minlaydi. Ma'lumki, ixtisoslashgan sudlar sudga taalluqli ishlarni o'z vaqtida, sifatli ko'rish va hal etish, odil sudlovning samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biridir.

O'z navbatida mamlakatimizda ma'muriy sudlarni tashkil etish zarurati quyidagi omillar bilan ham belgilanadi:

jinoiyat qonunchiligi tobora liberallashtirilib, ayrim qonunbuzarlik uchun belgilanadigan jazo choralari bosqichma-bosqich jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazilishi;

sudlarda ko'rilayotgan fuqarolik, iqtisodiy va jinoiy ishlariga qaraganda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning ko'pchilikni tashkil etishi;

fuqarolarning davlat boshqaruviga oid huquqlari va qonuniy manfaat-larini sud tartibida himoya qilishning samarali tizimini yaratish zarurati;

davlat boshqaruv organlari, ular mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni mustahkamlash, bu sohada sud nazoratini takomillashtirishning talab etilayotgani.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizning 44-moddasiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansab-dor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. O'z navbatida mamlakati-mizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi asosiy qonunimizda mustah-kamlangan ushbu huquqlarni samarali amalga oshirilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va joriy yilning 13 aprelida matbuotda e'lon qilingan "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublika-sining Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual

kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi loyihasini 2017 yil 1 sentyabrgacha bo'lgan muddatda tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish nazarda tutildi. Bu esa ommaviy-huquqiy munosabatlar-dan kelib chiqadigan hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ma'muriy sudlar tomonidan ko'rish hamda hal etish tartibini nazarda tutuvchi maxsus protsessual qonunchilikning qabul qilinishiga muhim turtki bo'ldi. Mazkur Qonun bilan yangi tahrirdagi Fuqarolik protsessual kodeksining hamda yangi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslarning qabul qilinishi bilan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rish tartibiga oid normalar Fuqarolik protsessual kodeksidan chiqarilib, yanada takomillashtirilgan holatda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksdan o'rin oladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra Germaniya, AQSH, Rossiyada Ma'muriy yustitsiya uch xil modelda tashkil etilganligini ko'rish mumkin. Ya'ni Ma'muriy yustitsiyaning umumiy, kvazi, maxsus sudlov shakllari amal qiladi. Germaniya sud tizimi: konstitutsiyaviy sudlar, umumiy sudlar (fuqarolik va jinoyat ishlari sudlarini o'z ichiga oladi), ma'muriy sudlar, mehnat sudlari, ijtimoiy sudlar, moliyaviy sudlar ga bo'linadi. Germaniya sudlarining o'ziga xosligi ularning ixtisoslashganligidadir. Masalan, ma'muriy sudlar moliyaviy, ijtimoiy va konstitutsiyaviy huquqbuzarliklarda boshqa barcha huquqiy munosabatlar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqadi, umumiy sudlar esa jinoiy, fuqarolik, oilaviy va mulkiy masalarga oid ishlarni ko'radi, mehnat sudlari ishchilar va korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni hal qiladi, ijtimoiy sudlar ijtimoiy xavfsizlikka oid ishlar, xususan, sog'liqni saqlash, sug'urta, 'ensiya va boshqa ijtimoiy ta'minotga oid masalarni hal etadi, moliyaviy sudlar esa soliq va yig'implarga taaluqli ishlarni ko'radi. O'zbekiston sud tizimiga Germaniyada takidlangan sud tarmoqlarini kengaytirish va ixtisoslashtirish hamda ishni ko'rib chiqayotgan sudya va xalq maslahatchilarining mavqeyi hamda 'rofessional bilimiga qo'yladigan talablar oshirilishi tadbiriq etilganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida» gi Qonunning 4-moddasi bilan sudlarga yuklatilgan vazifalar doirasi kengaytirildi. Endilikda sudning asosiy vazifalariga fuqarolarning Konstitutsiya va boshqa qonunlar, xalqaro shartnomalarda, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklari bilan birga davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kiritildi. Germaniya sud tizimida mavjud Ma'muriy sudlarning respublikamizda tashkil etilishi va sud ishlarini yuritish jarayonida sudyalarning yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarining belgilanishi Ma'muriy sudlarning odil sudlov instituti sifatida

shakllanishiga asos bo'лади. Germaniya kabi Yaponiya tajribasi ham o'rganildi. Xususan, Ya'oniyaning "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy ishlarni birinchi instansiya sudlari sifatida okrug sudlari ko'rib chiqishishi, umumiy yurisdiksiya sudlari (summary courts) jarima yoki boshqa yengilroq bo'lgan jazo tayinlanadigan huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishi kuzatildi.

Aynan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 29 yanvarda "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subhektlari huquqlarining samarali himoya etilishini tahminlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi PQ-107-sonli qarori ham jamiyatda ma'muriy sudlarning rolini kuchaytirish, ularni fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining haqiqiy himoyachisiga aylantirish maqsadida taraflarga, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha kelishuv bitimini tuzish huquqini berish, davlat organlari yoki tashkilotlari ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ish bo'yicha hal qiluv qarorini u qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oy davomida ijro qilish hamda bu haqida ma'muriy sudga xabar berish, sud hujjati ijro qilinmaganligi uchun mansabdor shaxslarga nisbatan sud jarimasini qo'llash, sudlar tomonidan da'vo arizasi, ariza hamda shikoyatni sudga taaluqli bo'lmaganligi sababli qabul qilishni rad etish yoki ish bo'yicha ish yuritishni tugatishni tahqiqlash, bunda da'vo arizasi, ariza, shikoyat yoki ishni ularni ko'rib chiqishga vakolatli sudga o'tkazish kabilar belgilangan.